



Chakana savdo tovar aylanmasi 2018 yilning yanvar -fevral oylarida 1411,3 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,9 foizga oshdi, shundan umumiy ovqatlanish aylanmasi 26,7 mlrd so'mni (o'tgan yilga nisbatan 88,4 foizni) tashkil etdi. Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 8,6 foizni tashkil etdi. Iste'mol tovarlari, tamaki mahsulotlari, benzin va alkogolli ichimliklarga bo'lgan talabning oshishi yirik korxonalarining o'sish sur'atini o'tgan yilning shu davriga nisbatan 42,8 foizga ko'payishiga olib keldi.

2018 yil yanvar-fevral oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati (mlrd so'm, foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Samarqand shahri (27,7 foiz), Urgut tumani (12,2 foiz), Pastdarg'om tumani (7,9 foiz), Kattaqo'rg'on shahri (5,6 foiz) va Bulung'ur (5,0 foiz) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi (foizda)



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 382,9 ming so'mni tashkil etdi (2016 yil yanvar-fevral oylarida 312,2 ming so'mni tashkil qilgan edi).

O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Kattaqo'rg'on shahri (906,4 ming so'm), Samarqand shahri (744,6 ming so'm) va Nurobod tumanida (408,7 ming so'm) kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 26684,4 mln. so'mni tashkil etdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 1,9 foizni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

Shahar va tumanlar nomi	<i>Ming. so'm</i>	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Samarqand shahri	744,6	108,9
Kattaqo'rg'on shahri	906,4	96,2
Bulung'ur tumani	395,2	98,0
Jomboy tumani	243,5	99,5
Ishtixon tumani	237,8	98,2
Kattaqo'rg'on tumani	243,1	97,2
Narpay tumani	277,1	98,3
Nurobod tumani	408,7	97,2
Oqdaryo tumani	262,4	101,2
Payariq tumani	244,9	97,1
Pastdarg'om tumani	333,4	102,9
Paxtachi tumani	396,4	97,8
Samarqand tumani	265,8	104,6
Tayloq tumani	254,6	101,3
Urgut tumani	360,8	95,4
Qo'shrabot tumani	397,4	96,7


Viloyatda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 382,9 ming so'mni va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,0 foizni tashkil etdi, shundan Samarqand shahri (744,6 ming so'm) o'tgan yilga nisbatan 108,9 foizni, Kattaqo'rg'on shahri (906,4 ming so'm) 96,2 foizni, Jomboy tumani (243,5 ming so'm) 99,5 foizni, Samarqand tumani (265,8 ming so'm) 104,6 foizni, Urgut tumani (360,8 ming so'm) va o'tgan yilga nisbatan 95,4 foizni tashkil etdi.

KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100,3 foizni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 91,4 foizini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik umumiy tovar aylanmasining 894,7 mlrd. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 63,4 foizni tashkil etdi .

Kichik tadbirkorlikning umumiy chakana tovar aylanmasidagi ulushi, foizda(%)



Kichik va mikrofirmalarning chakana tovar aylanmasi (395,6 mlrd. so'mni) o'tgan yilga nisbatan 111,2 foizni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 28,0 foizni tashkil etdi.